

## TRANSPORT AVARIYALAR VA TALOFATLAR.

**Nazarov Anvar Aripovich**

*Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası t.f.d professori*

**Shamsiddinov Samariddin Sirojiddin o'g'li**

*Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchisi*

**Odilboyeva Mohinur Olmos qizi**

*HTA 1-24 guruh talabasi Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur ishda transport tizimida yuzaga keladigan texnogen favqulodda vaziyatlar, xususan avtomobil va aviatsiya transportidagi avariya hamda yong'in-portlash xavfi bilan bog'liq hodisalar tahlil qilingan. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini kamaytirish bo'yicha xavfsizlik choralarining ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil transporti, aviatsiya avariya, favqulodda vaziyat, avariya-qutqaruv xizmati, birinchi tibbiy yordam, parvozlar xavfsizligi, texnogen xavf, yong'in-portlash xavfi, yong'in, portlash, qidiruv-qutqaruv ishlari, favqulodda vaziyatlar tasnifi, diffuziyali yonish, kinetik yonish.

Avtomobil transportida bo'ladigan ofatlarda jabrlanganlarga birinchi navbatda tibbiy yordami ko'satiladi va og'irlari kasalxonaga yoki tibbiy yordam ko'rsatish shaxobchalariga yuboriladi. Avariya uchragan avtomobillar tezlikda davlat avtomobil nazoratining maxsus joyga eltib qo'yiladi.

Havo yo'llardagi avariya. Aviatsiyada avariya ko'pchilik hollarda fojialar bilan yakunlanadi. Havo transportlarida bo'ladigan favqulodda vaziyatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 558-sonli qaroriga muvofiq «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi va unga qarashli «Avariya-qutqaruv» va «Qidiruv xizmatlari»ga parvozlar xavfsizligini ta'minlash vazifalari yuklatilgan.

Havo yo'llardagi avariya keltirib chiqaradigan sabablar:  
insonning xatosi 50 - 60%;  
aviatexnikani biror elementlarning ishlamay qolishi 15-30%;  
bevaqt ob-havoni o'zgarishi oqibatida 10 - 20% va boshqa sabablar (aviatexnikaning bir-biri bilan to'qnashishi yoki erga, qushlarga urilishi oqibatida sodir bo'ladi).



**1-rasm.** Aviasiyatransportdagi avariya

Aviatsiyadagi avariya juda tezlik bilan hal qilinishi lozim. Imkoni boricha aviatsiyadagi kamchilikni to'g'rilash, iloji bo'lmasa darhol erga qo'ndirish maqsadga muvofiqdir. Bunda albatta ekipaj komandiri va aerodrom boshlig'i butun mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar.

Aviatsiyani qo'ndirish chog'ida qidiruv, avariya-qutqaruv, birinchi tibbiy yordami ko'rsatish, evakuatsiya hamda fuqarolar muhofazasining boshqa qismlari qatnashadilar.

Bu xildagi avariya yuzida tez-tez uchrab turadi. Jumladan, O'zbekiston aviatsiyasida ham bunday hodisa ro'y bergan va muvaffaqiyat bilan yakunlangan holatlar mavjud. Masalan, 1979 yil avgust oyida «Paxtakor» futbol jamoasi a'zolari tushgan samolyot Minskka ketayotganda osmonda boshqa samolyot bilan to'qnashib, fojia bilan yakunlangan edi. Buni albatta, Respublikada yashovchi har bir fuqaro yaxshi biladi.

1999 yilda Toshkent-To'rtko'l yo'nalishidagi YAK-40 samolyotining To'rtko'l aerodromiga qo'nish paytida samolyot shassisining ishlamay qolishi oqibatida favqulodda vaziyat yuzaga

kelib, 2 kishi qurbon bo'lgan va 8 kishi turli darajadagi tan jarohatini olgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi 455-sonli "Texnolog, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi" to'g'risidagi qaroriga asosan yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan obyektlardagi avariyalarga: texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong'in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatadigan yoki saqlanadigan ob'ektlardagi, odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishiga va o'limiga, asosiy ishlab chiqarish fondlarining nobud bo'lishiga, favqulodda vaziyatlar xududlarida ishlab chiqarish siklining va odamlar hayoti faoliyatining buzilishiga olib keladigan avariya, yong'inlar va portlashlar; odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o'limga olib kelgan hamda qidirish-qutqarish ishlarini o'tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo'llanilishini talab qiluvchi ko'mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va

chang portlashi bilan bog'liq bo'lgan avariyaalar, yong'inlar va jinlar qo'porilishi kiritilgan.

Yonuvchi moddaning havo kislorodi bilan oksidlanib, manba ta'siri ostida issiqlikva nur chiqarishi bilan yakunlanadigan jarayon yonish deyiladi.

Yonish jarayoni 2 xil bo'ladi: diffuziyali yonish; kinetik yonish.

Diffuziyali yonishga sabab bo'ladigan narsalarga: yog'och, ko'mir, sham kiradi.

Kinetik yonishga sabab bo'luvchi mahsulotlarga: gaz, neft', spirt kiradi.

**1-jadval.**

**Yong'inni inson tomonidan kelib chiqish sabablari**

Yong'inning birlamchi keng tus olish omillari	Yong'inning sodir bo'lganligi omillari; yong'in sodir bo'lgan joylarda, yon- atrofning qizib ketishi; yong'inda yonayotgan jismlardan chiqayotgan tutun va zaharli moddalar; yong'in sodir bo'lgan joylarda va tevarak-atroflarda havo haroratining o'zgarishi
Yong'inning ikkilamchi keng tus olish omillari	Yong'in sodir bo'lganda bino devorining qulab tushishi; portlashning sodir bo'lishi; yong'in sodir bo'lgan joylarda turli kimyoviy va zaharli moddalarning atrof- muhitga tarqalishi; yong'inni suv bilan o'chirilganda turli kimyoviy moddalar qorishmasi natijasida portlashlar yuz berishi.
Yong'in kengligi jihatidan 3 turga bo'linadi	Kichik hajmda; o'rta hajmda; katta hajmda.
Yong'inning keng tarqab Ketishining asosiy sabablari	Inshootlarning loyihasini ishlab chiqishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar; inshootlar qurilishida qurilish me'yorlari va qoidalari hamda davlat standartlariga rioya qilmaslik; yong'in nazorati, gazdan foydalanishni nazorat qilish xodimlari tomonidan ko'rsatilgan yong'inni oldini olish tadbirlarining bajarilmasligi; fuqarolarning yong'in sodir etilganda o'z vazifalarini bilmasliklari va vahimaga tushishlari; bolalarning yong'in chiqishiga olib keluvchi o'yinlariga beparvolik; - yong'inga qarshi kurashda qo'llaniladigan qutqaruv vositalarinig kamligi.

Ma'lumotlarga qaraganda yong'inda nobud bo'lganlarning 60- 80%i nafas olish yo'llarining zaharlanishi yoki toza havoning yetishmasligi oqibatida halok bo'lar ekanlar.

Yong'inning oldini olish chora tadbirlari:

- tashkilot va muassasalarda doimiy ravishda tekshiruvlar o'tkazish,yong'in chiqishi portlashlarga sabab bo'ladigan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish;
- qurilish me'yorlari va qoidalari,davlat standartlariga doir maxsus ko'rsatmalarni so'zsiz bajarish;

yong'indan muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari bergan ko'rsatmalarni bajarish,eng asosiysi yong'inga olib keluvchi vaziyatlarni maxsus kuchlar tomonidan birinchi marta bartaraf etish bo'yicha qilinadigan ishlarni bajarish;

- muntazam tarzda davlvtmaxsus tekshiruv idoralari tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va ularga yo'l qo'ymaslik;

- yong'inni bartaraf etish chora-tadbirlarini bilish, qolaversa, yong'inni o'chirish uchun 1-daqiqada bir piyola, 2- daqiqada bir chelak suv etarli bo'lishini, 3- daqiqada esa bir sisterna suv ham etmay qolishi mumkinligini yodda saqlang.

Hozirgi paytda sanoat korxonalarida yonish xavfining kamayishi borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan, yong'in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalari qo'llanilmoqda. Sanoat korxonalari bino va inshootlari tarkibidan yonuvchi qurilish materiallarini siqib chiqarilmoqda. O't o'chirishning mexanizasiyalashgan va avtomatlashgan sistemalari kengroq qo'llanilmoqda.

Portlash - bu qisqa vaqtning o'zida chegaralangan hajmdagi, katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishidir.

Portlash gazlarning qattiq qizishi oqibatida yuqori bosim ostida sodir bo'ladi. Portlashlar asosan yong'in va portlash xavfi bor tashkilotlarda sodir bo'lib, uning oqibatida yong'inlar kelib chiqishi mumkin. Portlovchi moddalar saqlanadigan omborlar, ular bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar portlash xavfi bor tashkilotlar hisoblanib, ularda ma'lum sharoitlarda portlash sodir bo'lishi mumkin. Bularga mudofaa, neft va neft mahsulotlarini qayta ishlab chiqaruvchi-saqlovchi, kimyoviy, gaz, paxta, qog'oz, non mahsulotlari, engil sanoat korxonalari, ular ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni saqlovchi omborxonalar va ular bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkilotlar kiradi. O'zbekiston hududida gaz bilan ta'minlangan fuqarolarimizning uylarini nazarda tutmagan holda 500 dan ziyod portlash va yong'in chiqish xavfi mavjud bo'lgan tashkilotlar bor.

Portlatuvchi omillar:

- kimyoviy (portlovchi moddalar);
- yadroli (yadroli qurollar);
- mexanik uslubdagi (yuqori bosimdagi suyuqliklarni quyuvchi- tarqatuvchi idishlarning yorilishi);

- elektromagnit (uchqun zaryadi,
- lazer uchquni va b.);
- tovushli va boshqa quvvatlar.

Respublikamiz hududida yiliga taxminan 15-17 dan ziyod portlashlar sodir bo'ladi. Bu portlashlar asosan aholi yashaydigan xonadonlarda gazdan noto'g'ri foydalanish oqibatida sodir bo'lib, bular xonadonlardagi portlashlar deyiladi. Ularning asosiy kelib chiqish sabablari gaz bilan ishlash tartib-qoidalariga rioya qilmaslikdir. Bu borada 2019 yil davomida xonadonlarda 50 dan ziyod portlashlar sodir bo'lgan, oqibatda fuqarolar nobud bo'lganlar, o'nlab odamlar turli tan jarohatlari olishgan, shuningdek, 1998 yilda Shatlik-Xiva, Muborak-Zarbuloq yuqori bosimdagi gaz quvurlarida nosozlik tufayli portlash sodir bo'lib, ko'plab fuqarolarimiz nobud bo'lgan va tan jarohatlari olishgan. Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, yong'in va portlashlar qo'qqisidan sodir bo'ladi va ko'plab odamlarning o'limiga yoki og'ir tan jarohati olishiga olib keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аҳмедов А., Шарипов А. Yo'l harakati xavfsizligi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. – 232 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. Yo'l harakati qoidalari. Rasmiy nashr. – Toshkent: Adolat, 2023. – 156 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4567-son. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida. – 2022 yil 15 fevral.
4. Hayot faoliyati xavfsizligi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma Parmonov A.E, Igamberdiyev A, Dadayev G', qodirov m; O'zbekiston Respublikasi. Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligi. "Iqtisod – moliya", 2007.
5. <https://tir.uz>